

Omonturdiyev Orzu G'affarovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: orzubekomonturdiev05@gmail.com

Tel: +998933468181

UDK: 091.122 (172.12)

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik madaniyat tushunchasi va uning yoshlar ongida shakllanishi masalasi yoritilgan. Muallif ekologik ongning shakllanishida ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tashabbuslarining o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. So'rovnoma asosida talabalar orasida ekologik madaniyatning hozirgi holati baholanib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, yoshlar, ekologik ta'lim, ong, atrof-muhit, barqarorlik.

Омонтурдиев Орзу Гаффарович

Старший преподаватель Самаркандского

государственного архитектурно-строительного университета

E-mail: orzubekomonturdiev05@gmail.com

Тел: +998933468181

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В статье рассматривается понятие экологической культуры и особенности её формирования в сознании молодежи. Автор анализирует роль системы образования, средств массовой информации и общественных инициатив в развитии экологического сознания. На основе анкетирования проведена оценка текущего состояния экологической культуры среди студентов, обозначены существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: экологическая культура, молодежь, экологическое образование, сознание, окружающая среда, устойчивость.

Orzu Gaffarovich Omonturdiyev

Senior Lecturer, Samarkand State University of Architecture and Construction

E-mail: orzubekomonturdiyev05@gmail.com

Phone: +998933468181

SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE

Abstract. This article explores the concept of ecological culture and its formation in the minds of youth. The author analyzes the role of the education system, mass media, and public initiatives in shaping environmental awareness. Based on a student survey, the current state of ecological culture is assessed, and existing issues and potential solutions are discussed.

Keywords: ecological culture, youth, environmental education, awareness, environment, sustainability.

Kirish.

Insoniyat taraqqiyoti davomida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar doimo dolzarb bo'lib kelgan. Hozirgi globallashtirilgan dunyoda ekologik muammolar, ifloslanish, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi insoniyatning turmush tarziga bevosita tahdid solmoqda. Shuning uchun ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat ekologik barqarorlikning, balki ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ekologik madaniyat mohiyatan shaxsning tabiatga ongli munosabatini, ekologik qadriyatlarni anglashini va ularni kundalik hayotda amaliy qo'llashini ifodalaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, ekologik madaniyat inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydigan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Unda ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik, barqaror rivojlanish tamoyillari mujassamdir.

Ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, ekologik madaniyat yosh avlod tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Zero, kelajak avlodning dunyoqarashi,

turmush tarzi va qadriyatlarida ekologik ongning rivojlantirish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, oilaviy tarbiya, ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir. Falsafiy nuqtai nazardan ekologik madaniyat inson dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, ijtimoiy ongining muhim tarkibiy qismidir. Bu tabiatni nafaqat manba sifatida, balki inson hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tirik tizim sifatida ham tushunishni anglatadi. Bu inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda mas'uliyat, hamjihatlik va uyg'unlik g'oyalarini rivojlantiradi.

Ekologik madaniyat insonning tabiatga ongli munosabati, ekologik muammolarni anglay olish va ular bilan kurashish ko'nikmalariga ega bo'lishi, kundalik hayotda ekologik qadriyatlar asosida yashash odatlaridir. Ushbu madaniyatni yosh avlod ongiga chuqur singdirish barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Zero, aynan yoshlar jamiyatning eng faol va o'zgaruvchan qatlami bo'lib, kelajakda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi.

Hozirgi kunda "ekologik madaniyat" tushunchasi mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaro uchun muhim ahamiyatga ega. Zero, barcha OAVlarda hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar hamda ularni hal etish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar to'g'risida ma'lumotlar berib borilmoqda. Ushbu say-harakatlarning samarasi ekologik ta'lim-tarbiya hamda ekologik ma'lumotlarni aholiga yetkazish, targ'ibot-tashviqot qilish bilan chambarchas bog'liq. Binobarin ekologik madaniyat zahirida ekologik ta'lim-tarbiya yotadi. U esa tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asoslari uchun zarur bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1], – degan gaplari voqelikka

aylanishi ko'p jihatdan ma'naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularni ona tabiatni sevrishga, atrof -muhit sofligini ta'minlashga o'rgatish jarayoni bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza etish zarurligi haqidagi eng qadimgi nodir manbalardan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" hisoblanadi. Avesto qadimiy hayotning turli sohalariga tibbiyot, astronomiya, falsafa, tilshunoslik ilmiga oid boy ma'lumotlar beradi. Unda aks etgan ezgu fikrlar, hikmatlar, ta'limotlar jahondagi barcha mamlakat xalqlari uchun mos bo'lib, talaba-yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega tarixiy-falsafiy manbalardan hisoblanadi. Ona zaminni ulug'lash, suvni hayot manbai sifatida qadrlash, quyosh, olov, havoni e'zozlash, "Avesto"ning markazidagi masalalardan hisoblanadi [4].

Ma'lumki, ekologik madaniyat borasida Amur Temurning "Tuzuklar"ida ham muhim ma'lumotlar aks etgan. Shuningdek, sohibqironning Samarqand va boshqa shaharlarda ekologik holatni yaxshilash maqsadida tashkil etgan bog'lari "Tuzuklar"dagi nazariy ma'lumotlarning amaliyotda ham aks etganligini tasdiqlaydi [3].

Ekologik madaniyatni shakllantirish, ayniqsa, yoshlar ongida ekologik qadriyatlarni mustahkamlash masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda alohida diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu borada bir qator ilmiy ishlarda muhim jihatlar yoritilgan.

Mahalliy tadqiqotchilardan biri R.Hasanovning "Ekologik madaniyat" nomli risolasida ekologik madaniyatning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini atroflicha tahlil qilinadi. Muallif ekologik madaniyatni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ijtimoiy hodisa sifatida talqin etadi. Uning fikricha, ekologik tarbiya jarayonida yoshlarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish eng muhim vazifalardan hisoblanadi [5].

M.Rasulovning "O'zbekiston yoshlarining ekologik tashabbuslari" nomli tadqiqotida esa O'zbekiston yoshlari tomonidan ilgari surilayotgan ekologik

tashabbuslar tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik volontyorlik, “yashil hudud” loyihalari, chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha tashabbuslar va ekologik targ'ibot ishlari alohida qayd etiladi. Muallifning fikricha, yoshlar tashabbuslari nafaqat ekologik muammolarni hal etishga yordam beradi, balki ularning ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyati va ekologik ongini ham mustahkamlaydi [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, germeneytik tahlil, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi metodlaridan keng foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Jahonda tobora keskinlashib borayotgan ekologik vaziyat insoniyat oldiga jiddiy savollarni qo'yimoqda. Ular haqida o'rinli mulohaza yuritish bugun har birimizning zimmamizga mas'uliyat yuklaydi. XXI asrga kelib inson faoliyatining, bashariyat ehtiyojlarining haddan ziyod ortib ketishi tabiat muvozanatini izdan chiqara boshladi. Oddiygina kundalik turmushimizdan hosil bo'ladigan chiqindi bilan bog'liq muammolar zanjir bo'lib, suv, tuproq, atmosfera kabi asosiy tiriklik unsurlariga ulkan zarar yetkazuvchi xavf manbaiga aylandi. Tejamkorlik, oqilona foydalanish, ifloslantirmaslik kabi qadriyatlarning insoniyat uchun ahamiyati pasayib bormoqda [5].

Ekologik muammolarni bartaraf qilish uchun aql-tafakkurni, salohiyatni ishga solish Bugungi kunning talabi hisoblanadi. Ekologik muammolarga qarshi kurashishni avvalo har bir inson o'zidan boshlashi, atrofida gilardan ham shuni talab qilishi, jamiyatda tabiatga qarshi har qanday salbiy holatlarga nisbatan murosasiz munosabat shakllanishi zarur. Jamiyatda ekologik madaniyat shakllanishi uchun ekologik muammolarga qarshi kurashish, har bir ekologik huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabat, yon-atrofdagi holatlarga daxldorlik hissi hayotimizning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bunga esa aholi, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki va jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish orqali erishish mumkin [6].

Ekologik ta'lim, ekologik savodxonlik borasida so'nggi yillarda yuzlab, balki minglab tadbirlar o'tkazildi. Ammo tan olishimiz kerak, xalqimizning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda fuqarolarning ekologik savodxonligi darajasini oshirish borasida ko'plab muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Atrof-muhit muvozanatini saqlash, inson va jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabatlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha strategik vazifalarni amalga oshirish butun jamiyatning ekologik madaniyati darajasiga va har bir fuqaroning ekologik madaniyatiga ajralmas darajada bog'liqdir. Shuning uchun atrof-muhit muhofazasi uchun, ekologik muammolarga qarshi kurashish yo'lida butun jamiyatning ekologik madaniyati darajasini yuksaltirmasdan turib ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi [7].

Bugungi kunda jamiyatning ekologik madaniyati darajasini oshirishga to'sqinlik qilib turgan bir qator muammolar mavjud. Xususan, aholining ekologik madaniyatini tizimli va uzviy yuksaltirishni tashkil etishning huquqiy asoslari va uzoq muddatga mo'ljallangan davlat dasturlari yo'qligi, ta'lim muassasalarida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan o'quv jarayonining uzluksiz va izchil emasligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun birinchi navbatda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi ishlab chiqilishi va uni amalga oshirishda oila, mahalla, maktabgacha va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi butunlay qamrab olinishi kerak. Bunda har bir davlat va nodavlat tashkilotlarining aniq vazifasi, mas'uliyati qat'iy qaror topishi zarur [8].

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ekologik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, kelajak avlodlar uchun qulay muhit yaratishning asosi hisoblanadi. Shu bois ekologik madaniyatni rivojlantirish bugungi kun tartibining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, ijtimoiy, falsafiy va amaliy jihatlarni o'zida mujassam etgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent. 2023.
3. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: "Ijod-press", 2019. – 168 b.
4. Avesto. Yasht kitobi. M.Ishoqov tarjimasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa uyi, 2001. – 128 b.
5. Hasanov R. Ekologik madaniyat. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2023. – 219 b.
6. Karimova Z. Ekologiya fanini o'qitish metodikasi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2022. – 126 b.
7. Plumwood V. Environmental Culture: The Ecological Crisis of Reason. – New York: Routledge, 2002. – 240 p.
8. Rasulov M. O'zbekiston yoshlarining ekologik tashabbuslari. – Toshkent: Ijtimoiy tadqiqotlar markazi, 2024. – 72 b.